

**Samarqand viloyat hokimligining 2025-yil 7-apreldagi “Samarqand noni – xalq brendi” festivaliga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 97-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash bo‘yicha Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida
HISOBOT**

Samarqand viloyat hokimligining 2025-yil 7-apreldagi “Samarqand noni – xalq brendi” festivaliga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 97-7-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Samarqand viloyat hokimligi va “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti bilan hamkorlikda 17-may kuni “Samarqand noni tarixi va o‘ziga xosliklari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. Anjumanni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Konferensiyada plenar yig‘ilishida ma’ruza qiluvchilar saralab olindi va dasturga kiritildi.

- “Samarqand noni tarixi va o‘ziga xosliklari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman dasturi va taklifnomasi tayyorlanib, chop etildi (**dastur ilova qilinadi**).
- Dastur va taklifnomalar ishtirokchilarga tarqatildi.
- Ilmiy-amaliy anjumann o‘tkaziladigan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti katta majlislar zali tayyorlandi.

Tadbirni Samarqand davlat universiteti Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Xushvaqtov Hakim Abdilhaqovich ochib berdi.



Shundan so'ng Samarqand viloyati hokimining turizm, madaniyat, madaniy meros va ommaviy kommunikatsiyalar masalalari bo'yicha o'rinbosari – Turizm bosh boshqarmasi boshlig'i Kobilov Rustam Rajabboyevich so'zga chiqdi.



Ilmiy amaliy anjumanda 300 ga yaqin professor-o'qituvchilar, tadqiqotchilar, magistr va talabalar ishtirok etishdi.



Tadbirda SamDU Jahon tarixi kafedrası dotsenti Bexzod Turakulovning “Non va Samarqand”, Samarqand tamadduni tarixi kafedrası mudiri, dotsent Ravshanov Sherbek Tursunqulovichning “Samarqand noni va non bilan bog‘liq an‘analar”, Samarqand tamadduni tarixi kafedrası o‘qituvchisi, PhD Ungalov Azizbek Amiriddin o‘g‘lining “Mahalliy an‘ana va urf-odatlardagi nonning o‘rni (to‘ylar, diniy marosimlar, mehmondorchilik)”, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti Turizm va madaniy meros kafedrası dotsenti, PhD Boynazarov Odil Fayzullayevichning “Samarqand nonlarining o‘ziga xosligi va uning falsafasi” va Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali Tillar kafedrası dotsenti, PhD Ibatova Amira Shavkatovnaning “Non – tarixiy va madaniy merosimiz!” mavzularida o‘zlaring ilmiy ishlari va ijod-faoliyati haqida fikr bildirildi hamda ma‘ruzalari tinglandi.



Anjumanda Koferensiyaning kun tartibiga qo‘yilgan jami 5 ta ma‘ruza tinglandi. Ma‘ruzada so‘zga chiqqan xorijlik mehmonlar, universitetning professor-o‘qituvchilari, doktorantlari va talaba-qizlari non haqida fikr bildirdilar.



**Ilmiy tadqiqotlar va innovatsion
rivojlantirish boshqarmasi**



H.A. Xushvaqtoy